

“Тасдиқлайман”
“Сурхондарёсувқурилишинвест”
ДМ директори



С.Авазов
« » 2022й.

ЛОЙИХА ТОПШИРИҚНОМАСИ

Ишчи лойиҳани ишлаб чиқиш: Музработ туманидаги Тонг юлдизи Маҳалласидаги Навоий сув чиқариш иншоатини таъмирлаш ва 7 км бетон ариқ қуриш.

№	Асосий маълумотлар номи ва талаблар	Асосий маълумотлар таркиби ва талаблар
1	Буюртмачи	“Сурхондарёсувқурилишинвест” ДМ, Термиз шаҳар, “Шукрона” кўчаси 19-уй тел: 76-223-34-41, 76-221-73-29, х/р: 100021860224017049805170003, АТБ “Туронбанк”, МФО: 00014, ИНН: 201 122 919, ОКОНХ: 69000
2	Лойиҳалаштириш учун асос	Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 25 октябрдаги ПҚ408-сонли қарори ҳамда Халқ депутатлари Сурхондарё вилояти Кенгашининг 2022 йил 04 ноябрдаги 12-03/02-сонли қарори
3	Қурилиш тури	Лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш
4	Молиялаштириш манбаи	Маҳаллий бюджет.
5	Объектнинг жойлашган номи	Сурхондарё вилояти Музработ тумани
6	Объектнинг лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш учун бошланғич қиймати	266 000 000 сўм
7	Алоқа учун телефон рақами	998 99 317-72-00
8	Электрон манзил	surxan.invest@minwater.uz
9	Пул бирлиги	Сўмда
10	Ишларни бажариш муддати	10 кун
11	Ишларнинг асосий кўрсаткичлари	Лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш
12	Стандартларга риоя қилиш талаби	Давлат стандартлари
13	Объектнинг буюртмачига топшириш талаблари	Лойиҳа-смета ҳужжатларини буюртмачига ПНК1.03.01-16 2.9-бандига мувофиқ 3 нусхада ва электрон 1 нусхада тақдим қилиш
14	Танлов натижаларига кўра аниқланган ғолиб билан икки томонлама шартнома имзоланиб, шартнома ғазначилиқдан рўйхатдан ўтказилгандан сўнг лойиҳа-смета ҳужжатларини топшириш муддати	10 кун

“Сурхондарёсувқурилишинвест”
ДМ бош муҳандиси:

Н.Қулматов



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

2022 yil « 25 » октябрь

№ПК–408

2022–2023 йилларда маҳаллалар инфратузилмасини янада яхшилаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида

Республика ҳудудларини обод қилиш, қишлоқ ва маҳаллаларда инфратузилма билан боғлиқ энг долзарб масалаларни тизимли ҳал этиш, хусусан, жойларда ички йўллар, ичимлик сув, электр энергияси ва газ таъминотини, таълим, соғлиқни сақлаш, маданият, спорт ва бошқа инфратузилма объектларини яхшилаш, шу асосда аҳоли учун муносиб турмуш шароитларини яратиш мақсадида:

1. Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри бўйича **ҳудудий ишчи гуруҳлар** ташкил этилиб, улар томонидан **9 370 та** маҳаллада аҳолининг турмуш даражасига бевосита таъсир кўрсатувчи энг долзарб масалалар ўрганилганлиги ва ҳудудлар кесимида **2022–2023 йилларда маҳаллалар инфратузилмасини ривожлантириш бўйича лойиҳалар дастурлари** (кейинги ўринларда – Дастурлар) ишлаб чиқилганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

2. Маҳаллалар инфратузилмасини ривожлантириш чора-тадбирларини тизимли ва режали амалга ошириш мақсадида:

2022–2023 йилларда маҳаллалар инфратузилмасини ривожлантириш бўйича лойиҳалар дастурлари доирасида амалга ошириладиган тадбирларнинг **йиғма параметрлари 1-иловага мувофиқ;**

2022–2023 йилларда маҳаллалар инфратузилмасини ривожлантириш бўйича лойиҳалар дастурлари ижросини мувофиқлаштириш юзасидан **Республика ишчи гуруҳи** (кейинги ўринларда – Республика ишчи гуруҳи) таркиби **2-иловага мувофиқ;**

IQTISODIY TARAQQIYOT VA
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIG‘I

1

KELGAN № 1-707

2022 y. « 25 » 10

2022–2023 йилларда маҳаллалар инфратузилмасини ривожлантириш бўйича лойиҳалар дастурларини амалга ошириш юзасидан **ҳудудий ишчи гуруҳлар** (кейинги ўринларда – Ҳудудий ишчи гуруҳлар) раҳбарлари рўйхати 3-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

Республика ишчи гуруҳига (А.Ж.Раматов) Дастурларнинг йиғма параметрларига, зарур ҳолларда, ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳуқуқи берилсин.

3. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари Ҳудудий ишчи гуруҳлар билан биргаликда бир ҳафта муддатда Дастурлар доирасида амалга ошириладиган лойиҳаларнинг рўйхатларини тегишинча Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси, халқ депутатлари вилоятлар ва Тошкент шаҳри Кенгашларида муҳокама қилиб, тасдиқласин.

4. Дастурлар доирасида амалга ошириладиган қурилиш-таъмирлаш ишлари бўйича буюртмачилар этиб:

ички автомобиль йўллари бўйича – **Автомобиль йўллари қўмитаси** тизимидаги буюртмачи ташкилотлар;

ичимлик сув таъминоти ва оқова сув тизими объектлари бўйича – **“Сув таъминоти ва оқова сув объектлари қурилиши бўйича инжиниринг компанияси”** унитар корхонаси;

электр энергияси ва газ таъминоти объектлари ҳамда алоқа тармоқлари бўйича – тегишинча **“Ҳудудий электр тармоқлари” АЖ, “Ҳудудгазтаъминот” АЖ** ва **“Ўзбектелеком” АК**;

ижтимоий соҳа объектлари, маҳалла фуқаролар йиғинлари идоралари, ободонлаштириш ва тунги ёритиш ускуналарини ўрнатиш ишлари ва бошқа объектлар бўйича – Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари ҳузуридаги **“Ягона буюртмачи хизмати”** инжиниринг компаниялари ҳамда ушбу объектларни сақлаш билан боғлиқ таъмирлаш ишлари бўйича – **тегишли тармоқ корхоналари** белгилансин.

5. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари, Автомобиль йўллари қўмитаси, “Ҳудудий электр тармоқлари” АЖ, “Ҳудудгазтаъминот” АЖ, “Ўзсувтаъминот” АЖ ва бошқа буюртмачи ташкилотлар **2022 йил 15 ноябрга қадар** Дастурлар доирасида амалга ошириладиган лойиҳалар (объектлар)нинг **лойиҳа-смета ҳужжатларини** ишлаб чиқиш ва давлат экспертизасидан ўтказиш чораларини кўрсин.

6. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ Дастурлар доирасида:

қурилиш-таъмирлаш ишлари Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари ҳузуридаги **“Обод қишлоқ”** ва **“Обод маҳалла”** жамғармалари **орқали молиялаштирилади**. Бунда, маблағлар Ўзбекистон Республикаси республика бюджетидан маҳаллий бюджетларга бюджетлараро трансфертлар сифатида ажратилади;

2022 йилда ажратилиб, йил якунига қадар **ўзлаштирилмасдан қолган маблағлар Давлат бюджетига қайтарилмайди** ва ушбу маблағлар 2023 йилда Дастурларда назарда тутилган объектларнинг қурилиш-таъмирлаш ишларини якунлаш учун мақсадли йўналтирилади;

ажратилган маблағлар лойиҳа-смета ҳужжатларига асосан аниқланган ишлар ҳажмини молиялаштиришга етишмаган тақдирда, **қўшимча харажатлар** тегишинча Қорақалпоғистон Республикаси бюджети, вилоятлар ва Тошкент шаҳри **маҳаллий бюджетларининг қўшимча манбалари** ҳисобидан молиялаштирилади;

молиялаштириш учун қурилиш-таъмирлаш ишларининг манзилли рўйхатлари **Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари** томонидан тасдиқланади.

7. Дастурларни амалга ошириш доирасида:

бош лойиҳачи ташкилотлар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда танлов (тендер) орқали аниқлансин;

бош пудратчи ташкилотлар белгиланган тартибда **“Шаффоф қурилиш”** миллий ахборот тизими орқали ҳамда **объектларни сақлаш билан боғлиқ таъмирлаш ишлари** учун жалб этиладиган ташкилотлар белгиланган тартибда танлов (тендер) орқали аниқлансин;

бош лойиҳачи ва бош пудратчи ташкилотларга, истисно тариқасида, қурилиш-таъмирлаш ишлари учун **30 фоиз** миқдорида **олдиндан тўлов (аванс)** амалга оширишга рухсат берилсин.

8. Бош вазир ўринбосари Ж.А. Қўчқоров, Молия вазирлиги Дастурлар доирасида қурилиш-таъмирлаш ишларини бошлаш ва амалга ошириш мақсадида:

2022 йил 15 ноябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари ҳузуридаги **“Обод қишлоқ”** ва **“Обод маҳалла”** жамғармаларига жами **1,7 триллион сўм** миқдорида маблағларни ўтказиб берсин;

келгусида, эҳтиёжга қараб, ушбу қурилиш-таъмирлаш ишларини молиялаштириш учун қўшимча **1 триллион сўм** миқдорида маблағлар ажратилишини назарда тутсин.

9. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимлари ҳамда тегишли вазирлик ва идоралар раҳбарларига Дастурлар доирасида ажратиладиган маблағлардан мақсадли ва самарали фойдаланишни тизимли назорат қилиш ҳамда кредитор қарздорликлар юзага келишига йўқ қўймаслик юзасидан шахсий жавобгарлик юклансин.

10. Белгилансинки:

туман (шаҳар) секторлари ва бошқа ҳудудий ташкилотлар раҳбарлари **ҳар ойда** халқ депутатлари туман (шаҳар) Кенгашларига Дастурлар доирасида амалга оширилаётган ишлар тўғрисида **ҳисобот** бериб боради;

Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси, халқ депутатлари вилоятлар ва Тошкент шаҳри Кенгашлари Дастурлар ижро этилиши ҳолатининг мунтазам муҳокама қилинишини ва масъул раҳбарларнинг тегишли ҳисоботлари эшитиб борилишини таъминлайди;

Дастурларга киритилган объектларни фойдаланишга топшириш бўйича **давлат қабул комиссиялари** таркибига **маҳалла фуқаролар йиғинлари раислари** киритилади ва бажарилган қурилиш-таъмирлаш ишларининг ҳажми ва сифати бўйича жамоатчилик назорати ўрнатилади.

11. Ҳудудий ишчи гуруҳлар раҳбарлари Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимлари билан биргаликда икки ҳафта муддатда маҳаллалар кесимида алоҳида **режа-жадвалларни** тасдиқлаб:

ҳар ҳафта жойларга чиққан ҳолда маҳаллаларда амалга оширилаётган ишлар **ўз вақтида** ва **самарали** ташкил қилинишини назоратга олсин, шунингдек, долзарб муаммолар ҳал этилаётганлиги юзасидан **аҳолига батафсил тушунтириш ва ташвиқот** ишларини ташкил этсин;

маҳаллалар инфратузилмасини яхшилаш бўйича амалга оширилаётган ишларнинг ҳолатини, бу борада аҳолининг фикр-мулоҳазаларини тизимли ўрганиб, мавжуд муаммоларни ҳал этиш бўйича **Республика ишчи гуруҳига таклифлар** киритиб борсин.

12. Республика ишчи гуруҳи (А.Ж.Раматов):

Дастурлар ижросини ва Ҳудудий ишчи гуруҳлар фаолиятини мувофиқлаштириб борсин, шу жумладан ҳар бир лойиҳа (объект)нинг амалга оширилишини доимий мониторинг қилиш, кечикаётган лойиҳа (объект)ларни жойларга чиққан ҳолда ўрганиш ва аниқланадиган муаммоли масалаларни тизимли ҳал этиш чораларини кўрсин;

ҳар ойда Дастурлар ижросини танқидий муҳокама қилиб, Вазирлар Маҳкамаси Раёсатига ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига **ахборот** киритиб борсин.

13. Дастурлар доирасида амалга ошириладиган ишлар устидан қуйидаги **назорат тизими** йўлга қўйилсин:

Қурилиш соҳасида назорат инспекцияси, **Йўл-қурилиш ишлари сифатини назорат қилиш инспекцияси, Ичимлик сувдан фойдаланишни назорат қилиш инспекцияси** қурилиш-таъмирлаш ишларининг сифати, шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларига риоя этилиши юзасидан **давлат архитектура-қурилиш назоратини** амалга оширади;

Давлат молиявий назорати инспекцияси Дастурлар доирасида ажратилаётган маблағларнинг мақсадли ва самарали ишлатилиши устидан тизимли **давлат молиявий назоратини** амалга оширади;

Бош прокуратура жойларда Дастурларнинг ўз вақтида, тўлиқ ва сифатли **ижро этилиши**, шу жумладан объектларнинг **лойиҳа-смета ҳужжатлари** ўз вақтида ва сифатли ишлаб чиқирилиши, ҳар бир лойиҳа (объект) бўйича **маблағларнинг мақсадли ва самарали сарфланиши**, қурилиш-таъмирлаш ишлари **сифатли бажарилиши**, **харид қилиш тартиб-таомиллари** қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ амалга оширилиши устидан **тизимли назорат** ўрнатади;

маҳалла фуқаролар йиғинлари раислари, маҳаллалардаги ҳоким ёрдамчилари, хотин-қизлар фаоллари ва ёшлар етакчилари, оммавий ахборот воситалари ва бошқа жамоат ташкилотлари Дастурлар доирасида амалга ошириладиган ишларнинг ҳолати, сифати ва кўлами юзасидан **жамоатчилик назоратини** ўрнатишга жалб қилинади.

Бош прокуратура **икки ҳафта муддатда** мазкур қарор доирасида ҳамда ташаббусли бюджетлаштириш асосида молиялаштириладиган лойиҳалар (объектлар)ни **амалга ошириш жараёнлари** самарадорлигини ошириш, ушбу соҳада **давлат ва жамоатчилик назорати** механизмларини такомиллаштириш, **очиқлик ва шаффофликни** таъминлаш бўйича қарор лойиҳасини киритсин.

14. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги ва Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси оммавий ахборот воситаларида мазкур қарорнинг мазмун ва моҳияти, маҳаллалар инфратузилмасини яхшилаш орқали аҳоли учун муносиб турмуш шароитини яратиш бўйича амалга оширилаётган ишларнинг кўлами ва ислоҳотларнинг натижаларини кенг ёритиб бориш бўйича мақолалар, мавзули кўрсатувлар ва эшиттиришлар ташкил қилсин.

15. Мазкур қарорнинг ижросини самарали ташкил қилиш, унинг натижадорлигини **ҳар ойда** муҳокама қилиб бориш ва ижро учун масъул идоралар фаолиятини мувофиқлаштиришга масъул этиб Бош вазир ўринбосарлари А.Ж. Раматов ва Ж.А.Қўчқоров белгилансин.

Амалга оширилаётган чора-тадбирлар натижадорлиги юзасидан Ўзбекистон Республикаси Президентига **ҳар ой якуни** бўйича ахборот бериб борилсин.

Ўзбекистон Республикаси
Президенти



Ш. Мирзиёев

Тошкент шаҳри

2022–2023 йилларда маҳаллалар инфратузилмасини ривожлантириш бўйича лойиҳалар дастурлари доирасида амалга оширилаётган тадбирларнинг
ЙИГМА ПАРАМЕТРЛАРИ

Т/р	Худудлар	Маҳалла-лар сони (бирлик)	Жами тадбирлар		ички йўллар		ичимлик сув таъминоти		оқова сув таъминоти		электр энергияси таъминоти		газ таъминоти		умумтаълим мактаблари		мактабгача таълим ташиқотлари		спорт объектлари		бошқалар		2022 йил учун моллия-лаштириш ҳажми		
			Объект сони	Қий-мати	Объект сони	Қий-мати	Объект сони	Қий-мати	Объект сони	Қий-мати	Объект сони	Қий-мати	Объект сони	Қий-мати	Объект сони	Қий-мати	Объект сони	Қий-мати	Объект сони	Қий-мати	Объект сони	Қий-мати		Объект сони	Қий-мати
	Жами	5 284	6 007	7 046,8	2 602	3 826,1	1 848	2 282,1	91	122,5	498	120,9	72	49,2	53	33,0	33	24,6	74	37,0	736	549,4	2 700,0		
1	Қорақалпоғистон Республикаси	252	259	293,7	116	150,5	60	99,9	1	0,5	13	3,0	9	0,8					14	7,7	46	31,3	112,5		
2	Андижон вилояти	473	527	581,1	173	314,8	272	250,9	9	3,4	30	6,4	23	1,4	7	2,9	1	0,03			12	1,3	222,6		
3	Бухоро вилояти	408	413	843,6	341	772,0	21	43,0			8	1,9			4	1,1	1	0,6	2	6,6	36	18,3	323,2		
4	Жиззах вилояти	159	184	453,0	57	175,4	78	163,2	3	6,3	8	1,9	6	21,7	2	1,2	1	0,3			29	83,1	173,6		
5	Қашқадарё вилояти	511	621	528,6	301	313,7	148	140,2	3	1,0	48	12,4	8	0,9	9	2,3	3	4,2	2	3,0	99	50,9	202,6		
6	Навоий вилояти	211	295	397,7	127	197,6	70	148,6			10	3,2			4	0,5			13	1,4	71	46,4	152,4		
7	Наманган вилояти	328	377	477,8	94	208,6	134	196,0	9	18,3	52	8,9			3	1,4	2	3,4	6	3,2	77	38,2	183,1		
8	Самарқанд вилояти	585	588	394,9	296	251,8	178	105,8	11	6,3	51	10,1	5	0,6			5	3,8	13	4,8	29	11,8	151,3		
9	Сурхондарё вилояти	438	532	423,2	207	234,7	194	133,6	2	3,2	58	14,8	8	3,0	8	7,7	6	1,7	2	0,8	47	23,9	162,2		
10	Сирдарё вилояти	122	158	137,1	41	52,5	49	52,1	8	3,1	21	5,6	7	6,7					3	0,7	29	16,5	52,5		
11	Тошкент вилояти	712	964	1 057,1	329	397,4	376	507,3	13	25,2	88	25,1	2	0,3	5	2,4	9	7,2	12	4,1	130	88,2	405,0		
12	Фарғона вилояти	716	719	1 107,8	371	595,5	214	390,9	21	39,5	47	13,9	1	4,8	8	11,1	4	2,5	3	1,1	50	48,5	424,5		
13	Хоразм вилояти	302	303	189,5	133	114,7	49	34,5	4	6,2	59	10,7			2	0,9					56	22,5	72,6		
14	Тошкент шаҳри	67	67	161,5	16	49,1	5	16,1	7	9,6	5	3,0	3	9,0	1	1,5	1	0,9	4	3,7	25	68,5	61,9		

*) Ушбу йиғма параметрлар объектларнинг лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш ва тасма (тендер) савдолари натижалари бўйича аниқлаштирилади.

млрд сўм

**2022–2023 йилларда маҳаллалар инфратузилмасини ривожлантириш
бўйича лойиҳалар дастурлари ижросини мувофиқлаштириш юзасидан
республика ишчи гуруҳи
ТАРКИБИ**

А.Раматов	– Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг биринчи ўринбосари, Республика ишчи гуруҳи раҳбари
<i>Лавозими бўйича</i>	– Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимлари
Э.Юлдашев	– Бош прокурор ўринбосари
Ў.Жуманов	– Ҳисоб палатаси раиси ўринбосари
Т.Ишметов	– молия вазири
Б.Закиров	– қурилиш вазири
Ш.Хидоятлов	– уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш вазири
Б.Саидов	– халқ таълими вазири
А.Шин	– мактабгача таълим вазири
Б.Мусаев	– соғлиқни сақлаш вазири
Н.Холмуродов	– инвестициялар ва ташқи савдо вазирининг биринчи ўринбосари
А.Ахмедходжаев	– энергетика вазирининг биринчи ўринбосари
А.Бобоев	– иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазири ўринбосари
А.Турсунов	– маҳалла ва нурунийларни қўллаб-қувватлаш вазири ўринбосари
Н.Обломуродов	– Экология ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси раиси
А.Абдувалиев	– Автомобиль йўллари қўмитаси раиси
С.Саифназаров	– “Ўзсувтаъминот” АЖ бошқаруви раиси в.б.
У.Мустафоев	– “Ҳудудий электр тармоқлари” АЖ бошқаруви раиси
Б.Эшмуродов	– “Ҳудудгазтаъминот” АЖ бошқаруви раиси
М.Жуманиязов	– Вазирлар Маҳкамаси котибияти мудирининг биринчи ўринбосари, Республика ишчи гуруҳи котиби

Изоҳ.

Республика ишчи гуруҳи аъзолари бошқа ишга ўтган тақдирда, унинг таркибига мазкур лавозимга янги тайинланган ёки тегишли функцияларни бажариш юкланган шахслар киритилади.

Республика ишчи гуруҳи ўзига юклатилган вазифаларни бажариш мақсадида, зарур ҳолларда, бошқа тегишли вазирлик, идора ва ташкилотларнинг раҳбарлари ҳамда вакиллари билан жалб қилиши мумкин.

**2022–2023 йилларда маҳаллалар инфратузилмасини ривожлантириш
бўйича лойиҳалар дастурларини амалга ошириш юзасидан
ҳудудий ишчи гуруҳлар раҳбарлари рўйхати**

Ҳудудлар	Ишчи гуруҳ раҳбарлари
Қорақалпоғистон Республикаси	Б.Абидов – инвестициялар ва ташқи савдо вазири ўринбосари
Андижон вилояти	Б.Рахимов – инвестициялар ва ташқи савдо вазири ўринбосари
Бухоро вилояти	О.Рустамов – инвестициялар ва ташқи савдо вазири ўринбосари
Жиззах вилояти	Х.Тешабаев – инвестициялар ва ташқи савдо вазири ўринбосари
Қашқадарё вилояти	И.Норқулов – иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирининг биринчи ўринбосари
Навоий вилояти	А.Мирсоатов – “Миллий банк” АЖ бошқаруви раиси
Наманган вилояти	Ж.Абруев – молия вазири ўринбосари
Самарқанд вилояти	О.Исаков – молия вазири ўринбосари
Сурхондарё вилояти	С.Аннакличев – “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ бошқаруви раиси
Сирдарё вилояти	Д.Султанов – молия вазири ўринбосари
Тошкент вилояти	О.Насритдинходжаев – молия вазирининг биринчи ўринбосари
Фарғона вилояти	М.Убайдуллаев – иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазири ўринбосари – Маҳаллабай ишлаш ва тадбиркорликни ривожлантириш агентлиги директори
Хоразм вилояти	Н.Холмуродов – инвестициялар ва ташқи савдо вазирининг биринчи ўринбосари

Тошкент шаҳри	Л.Кудратов – инвестициялар ва ташқи савдо вазирининг биринчи ўринбосари (Бектемир, Мирзо Улуғбек, Чилонзор, Шайхонтоҳур, Юнусобод ва Яшнобод туманлари бўйича)
	Ш.Кудбиев – Давлат солиқ қўмитаси раиси (Миробод, Олмазор, Сергели, Учтепа, Яккасарой ва Янгиҳаёт туманлари бўйича)

Изоҳ.

Худудий ишчи гуруҳлар аъзолари бошқа ишга ўтган тақдирда, уларнинг таркибига мазкур лавозимга янги тайинланган ёки тегишли функцияларни бажариш юкланган шахслар киритилади.

Худудий ишчи гуруҳлар ўзига юклатилган вазифаларни бажариш мақсадида, зарур ҳолларда, бошқа тегишли вазирлик, идора ва ташкилотларнинг раҳбарлари ҳамда вакилларини жалб қилиши мумкин.





ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

2022 yil «25» октябры

№ПП-408

О дополнительных мерах по дальнейшему улучшению инфраструктуры махаллей в 2022–2023 годах

В целях благоустройства регионов республики, системного решения самых актуальных вопросов, связанных с инфраструктурой в селах и махаллях, в частности улучшения на местах внутренних дорог, питьевого водоснабжения, электро- и газоснабжения, объектов образования, здравоохранения, культуры, спорта и других объектов инфраструктуры, создания на основе этого достойных условий жизни для населения:

1. Принять к сведению, что созданы **региональные рабочие группы** по Республике Каракалпакстан, областям и городу Ташкенту, ими изучены в **9 370** махаллях самые актуальные вопросы, непосредственно воздействующие на уровень жизни населения, и разработаны **программы проектов по развитию инфраструктуры махаллей в 2022–2023 годах** (далее – Программы) в разрезе регионов.

2. В целях системной и плановой реализации мер по развитию инфраструктуры махаллей утвердить:

Сводные параметры мер, осуществляемых в рамках программ проектов по развитию инфраструктуры махаллей в 2022–2023 годах, согласно приложению № 1;

Состав **Республиканской рабочей группы** по координации исполнения программ проектов по развитию инфраструктуры махаллей в 2022–2023 годах (далее – Республиканская рабочая группа) согласно приложению № 2;

Список руководителей **региональных рабочих групп** по реализации программ проектов по развитию инфраструктуры махаллей в 2022–2023 годах (далее – Региональные рабочие группы) согласно приложению № 3.

Республиканской рабочей группе (Раматов А.Ж.) предоставить право внесения в сводные параметры Программ, при необходимости, изменений и дополнений.

3. Совету Министров Республики Каракалпакстан, хокимиятам областей и города Ташкента совместно с Региональными рабочими группами **в недельный срок** обсудить и утвердить **перечень проектов**, реализуемых в рамках Программ, соответственно в Жокаргы Кенесе Республики Каракалпакстан, Кенгашах народных депутатов областей и города Ташкента.

4. Определить **заказчиками** по строительно-ремонтным работам, осуществляемым в рамках Программ:

организации-заказчики в системе **Комитета по автомобильным дорогам** – по внутренним автомобильным дорогам;

Унитарное предприятие **«Инжиниринговая компания по строительству объектов водоснабжения и канализации»** – по объектам питьевого водоснабжения и системы канализации;

АО «Региональные электрические сети», АО «Худудгазтаъминот» и АК «Узбектелеком» – по объектам электро- и газоснабжения и сетям связи соответственно;

инжиниринговые компании **«Служба единого заказчика»** при Совете Министров Республики Каракалпакстан, хокимиятах областей и города Ташкента – по объектам социальной сферы, зданиям сходов граждан махаллей, работе по благоустройству и установке оборудования ночного освещения и другим объектам, а также **соответствующие отраслевые предприятия** – по ремонтным работам, связанным с содержанием данных объектов.

5. Совету Министров Республики Каракалпакстан, хокимиятам областей и города Ташкента, Комитету по автомобильным дорогам, АО «Региональные электрические сети», АО «Худудгазтаъминот», АО «Узсувтаъминот» и другим организациям-заказчикам **в срок до 15 ноября 2022 года** принять меры по разработке и проведению государственной экспертизы **проектно-сметной документации** проектов (объектов), реализуемых в рамках Программ.

6. Установить порядок, в соответствии с которым в рамках Программ:

строительно-ремонтные работы финансируются через фонды «Обод кишлок» и «Обод махалла» при Совете Министров Республики Каракалпакстан, хокимиятах областей и города Ташкента. При этом средства выделяются из республиканского бюджета Республики Узбекистан в местные бюджеты в качестве межбюджетных трансфертов;

средства, выделенные в 2022 году и **не освоенные** до конца года, **не подлежат возврату в Государственный бюджет** и данные средства направляются в целевом порядке в 2023 году на завершение работ по строительству и ремонту объектов, предусмотренных в Программах;

при недостаточности выделенных средств на финансирование объема работ, определенных на основании проектно-сметной документации, **дополнительные расходы** финансируются соответственно за счет **дополнительных источников бюджета** Республики Каракалпакстан, **местных бюджетов** областей и города Ташкента;

адресные списки строительно-ремонтных работ для финансирования утверждаются **Советом Министров Республики Каракалпакстан, хокимиятами областей и города Ташкента.**

7. В рамках реализации Программ:

определить **генеральные проектные организации** через конкурс (тендер) в порядке, установленном актами законодательства;

определить **генеральные подрядные организации** посредством Национальной информационной системы «Прозрачное строительство» в установленном порядке, а также организации, привлекаемые для **ремонтных работ, связанных с содержанием объектов**, – через конкурс (тендер) в установленном порядке;

разрешить, в порядке исключения, осуществление генеральным проектным и генеральным подрядным организациям **предоплату (аванс)** в размере **30 процентов** за строительно-ремонтные работы.

8. Заместителю Премьер-министра Кучкарову Д.А., Министерству финансов в целях начала и осуществления строительно-ремонтных работ в рамках Программ:

в срок до 15 ноября 2022 года перевести в фонды «Обод кишлок» и «Обод махалла» при Совете Министров Республики Каракалпакстан, хокимиятах областей и города Ташкента средства в размере **1,7 триллиона сумов**;

в последующем предусмотреть выделение по потребности средств дополнительно в размере **1 триллиона сумов** для финансирования данных строительно-ремонтных работ.

9. Возложить на Председателя Совета Министров Республики Каракалпакстан, хокимов областей и города Ташкента, а также на руководителей соответствующих министерств и ведомств **персональную ответственность** за осуществление **системного контроля** за целевым и эффективным использованием выделяемых в рамках Программ средств и недопущение возникновения **кредиторской задолженности**.

10. Установить, что:

руководители секторов районов (городов) и иных территориальных организаций **ежемесячно** представляют **отчет** районным (городским) Кенгашам народных депутатов о работе, осуществляемой в рамках Программ;

Жокаргы Кенес Республики Каракалпакстан, Кенгаши народных депутатов областей и города Ташкента обеспечивают проведение регулярных обсуждений состояния исполнения Программ и заслушиваний соответствующих отчетов ответственных руководителей;

в состав **государственных приемочных комиссий** по сдаче в эксплуатацию объектов, включенных в Программы, включаются **председатели сходов граждан махаллей** и устанавливается общественный контроль за объемом и качеством выполненных строительно-ремонтных работ.

11. Руководителям региональных рабочих групп совместно с Председателем Совета Министров Республики Каракалпакстан, хокимами областей и города Ташкента, **в двухнедельный срок** утвердив отдельные **планы-графики** в разрезе махаллей:

установить контроль за **своевременной и эффективной** организацией проводимых в махаллях работ с **еженедельным** выездом на места, а также организовать работу **по подробному разъяснению и информированию населения** о решаемых актуальных проблемах;

изучать на системной основе состояние осуществляемых работ по улучшению инфраструктуры махаллей, мнения и суждения населения в данном направлении и вносить в **Республиканскую рабочую группу предложения** по решению имеющихся проблем.

12. Республиканской рабочей группе (Раматов А.Ж.):

осуществлять **координацию исполнения Программ и деятельности Региональных рабочих групп**, в том числе принять меры по проведению постоянного мониторинга реализации каждого проекта (объекта), изучению отстающих проектов (объектов) с выездом на места и системному решению выявляемых проблемных вопросов;

ежемесячно критически обсуждать исполнение Программ, вносить информацию в Президиум Кабинета Министров и Администрацию Президента Республики Узбекистан.

13. Установить следующую систему контроля за работой, осуществляемой в рамках Программ:

Инспекция по контролю в сфере строительства, Инспекция по контролю за качеством дорожно-строительных работ, Инспекция по контролю за использованием питьевой воды осуществляют государственный архитектурно-строительный надзор за качеством строительно-ремонтных работ, соблюдением градостроительных норм и правил;

Инспекция государственного финансового контроля осуществляет системный государственный финансовый контроль за целевым и эффективным использованием средств, выделяемых в рамках Программ;

Генеральная прокуратура устанавливает системный контроль за своевременным, полным и качественным исполнением Программ на местах, в том числе за своевременной и качественной разработкой проектно-сметной документации объектов, целевым и эффективным использованием средств по каждому проекту (объекту), качественным выполнением строительно-ремонтных работ, осуществлением закупочных процедур в соответствии с актами законодательства;

председатели сходов граждан махаллей, помощники хокимов, женские активисты и лидеры молодежи в махаллях, средства массовой информации и другие общественные организации привлекаются к установлению общественного контроля за состоянием, качеством и масштабами работ, осуществляемых в рамках Программ.

Генеральной прокуратуре в двухнедельный срок внести проект постановления по повышению эффективности процессов реализации проектов (объектов), финансируемых в рамках данного постановления и на основе инициативного бюджетирования, совершенствованию механизмов государственного и общественного контроля, обеспечению открытости и прозрачности в данной сфере.

14. Национальному информационному агентству Узбекистана и Национальной телерадиокомпании Узбекистана организовать публикацию статей, тематические передачи и вещания по широкому освещению в средствах массовой информации сути и содержания настоящего постановления, масштабов работы и результатов осуществляемых реформ по созданию достойных условий жизни для населения путем улучшения инфраструктуры махаллей.

15. Возложить на заместителей Премьер-министра Раматова А.Ж. и Кучкарова Д.А. персональную ответственность за эффективную организацию исполнения настоящего постановления, **ежемесячное** обсуждение результативности и осуществление координации деятельности ведомств, ответственных за его исполнение.

О результативности осуществляемых мер вносить информацию Президенту Республики Узбекистан **по итогам каждого месяца.**

**Президент
Республики Узбекистан**



Ш. Мирзиёев

город Ташкент

СВОДНЫЕ ПАРАМЕТРЫ
мер, осуществляемых в рамках программ проектов по развитию инфраструктуры махаллей в 2022–2023 годах

№	Регионы	Кол-во махаллей (ед.)	Всего мероприятий		внутренние дороги		питьевое водоснабжение		канализация		электро-снабжение		газоснабжение		общеобразовательные школы		дошкольные образовательные организации		объекты спорта		другие		Объем финансирования на 2022 год
			кол-во объектов	стоимость	кол-во объектов	стоимость	кол-во объектов	стоимость	кол-во объектов	стоимость	кол-во объектов	стоимость	кол-во объектов	стоимость	кол-во объектов	стоимость	кол-во объектов	стоимость	кол-во объектов	стоимость	кол-во объектов	стоимость	
	Всего	5 284	6 007	3 828,1	1 848	2 282,1	91	122,5	498	120,9	72	49,2	53	33,0	33	24,6	74	37,0	736	549,4	2 700,0		
1	Республика Каракалпакстан	252	259	150,5	60	99,9	1	0,5	13	3,0	9	0,8					14	7,7	46	31,3	112,5		
2	Андижанская область	473	527	314,8	272	250,9	9	3,4	30	6,4	23	1,4	7	2,9	1	0,03			12	1,3	222,6		
3	Бухарская область	408	413	772,0	21	43,0			8	1,9			4	1,1	1	0,6	2	6,6	36	18,3	323,2		
4	Джизакская область	159	184	175,4	78	163,2	3	6,3	8	1,9	6	21,7	2	1,2	1	0,3			29	83,1	173,6		
5	Кашгардарьинская область	511	621	313,7	148	140,2	3	1,0	48	12,4	8	0,9	9	2,3	3	4,2	2	3,0	99	50,9	202,6		
6	Навоийская область	211	295	197,6	70	148,6			10	3,2			4	0,5			13	1,4	71	46,4	152,4		
7	Наманганская область	328	377	208,6	134	196,0	9	18,3	52	8,9			3	1,4	2	3,4	6	3,2	77	38,2	183,1		
8	Самаркандская область	585	588	251,8	178	105,8	11	6,3	51	10,1	5	0,6			5	3,8	13	4,8	29	11,8	151,3		
9	Сурхандарьинская область	438	532	234,7	194	133,6	2	3,2	58	14,8	8	3,0	8	7,7	6	1,7	2	0,8	47	23,9	162,2		
10	Сырдарьинская область	122	158	52,5	49	52,1	8	3,1	21	5,6	7	6,7					3	0,7	29	16,5	52,5		
11	Ташкентская область	712	964	397,4	376	507,3	13	25,2	88	25,1	2	0,3	5	2,4	9	7,2	12	4,1	130	88,2	405,0		
12	Ферганская область	716	719	595,5	214	390,9	21	39,5	47	13,9	1	4,8	8	11,1	4	2,5	3	1,1	50	48,5	424,5		
13	Хорезмская область	302	303	114,7	49	34,5	4	6,2	59	10,7			2	0,9					56	22,5	72,6		
14	город Ташкент	67	67	49,1	5	16,1	7	9,6	5	3,0	3	9,0	1	1,5	1	0,9	4	3,7	25	68,5	61,9		

млрд сум

*) данные сводные параметры уточняются по итогам разработки проектно-сметной документации объектов и конкурсных (тендерных) торгов.

СОСТАВ

Республиканской рабочей группы по координации исполнения программ проектов по развитию инфраструктуры махаллей в 2022–2023 годах

- | | |
|---------------------|--|
| Раматов А. | – первый заместитель Премьер-министра Республики Узбекистан, руководитель Республиканской рабочей группы |
| <i>По должности</i> | – Председатель Совета Министров Республики Каракалпакстан, хокимы областей и города Ташкента |
| Юлдашев Э. | – заместитель Генерального прокурора |
| Жуманов У. | – заместитель председателя Счетной палаты |
| Ишметов Т. | – министр финансов |
| Закиров Б. | – министр строительства |
| Хидоятов Ш. | – министр жилищно-коммунального обслуживания |
| Саидов Б. | – министр народного образования |
| Шин А. | – министр дошкольного образования |
| Мусаев Б. | – министр здравоохранения |
| Холмуродов Н. | – первый заместитель министра инвестиций и внешней торговли |
| Ахмедходжаев А. | – первый заместитель министра энергетики |
| Бобоев А. | – заместитель министра экономического развития и сокращения бедности |
| Турсунов А. | – заместитель министра по поддержке махалли и старшего поколения |
| Обломуратов Н. | – председатель Государственного комитета по экологии и охране окружающей среды |
| Абдувалиев А. | – председатель Комитета по автомобильным дорогам |
| Саифназаров С. | – и.о. председателя правления АО «Узсувтаъминот» |
| Мустафоев У. | – председатель правления АО «Региональные электрические сети» |
| Эшмурадов Б. | – председатель правления АО «Худудгазтаъминот» |
| Жуманиязов М. | – первый заместитель заведующего секретариатом Кабинета Министров, секретарь Республиканской рабочей группы |

Примечания.

При переходе членов Республиканской рабочей группы на другую работу в ее состав включаются лица, вновь назначенные на эти должности, либо лица, на которых возложено выполнение соответствующих функций.

Республиканская рабочая группа в целях выполнения возложенных на нее задач, при необходимости, может привлекать руководителей и представителей других соответствующих министерств, ведомств и организаций.

**Список
руководителей региональных рабочих групп по реализации программ
проектов по развитию инфраструктуры махаллей в 2022–2023 годах**

Регионы	Руководители рабочих групп
Республика Каракалпакстан	Абидов Б. – заместитель министра инвестиций и внешней торговли
Андижанская область	Рахимов Б. – заместитель министра инвестиций и внешней торговли
Бухарская область	Рустамов О. – заместитель министра инвестиций и внешней торговли
Джизакская область	Тешабаев Х. – заместитель министра инвестиций и внешней торговли
Кашкадарьинская область	Норкулов И. – первый заместитель министра экономического развития и сокращения бедности
Навоийская область	Мирсоатов А. – председатель правления АО «Национальный банк»
Наманганская область	Абруев Ж. – заместитель министра финансов
Самаркандская область	Исаков О. – заместитель министра финансов
Сурхандарьинская область	Аннакличев С. – председатель правления АКБ «Узпромстройбанк»
Сырдарьинская область	Султанов Д. – заместитель министра финансов
Ташкентская область	Насритдинходжаев О. – первый заместитель министра финансов
Ферганская область	Убайдуллаев М. – заместитель министра экономического развития и сокращения бедности – директор Агентства по работе махаллабай и развитию предпринимательства
Хорезмская область	Холмуродов Н. – первый заместитель министра инвестиций и внешней торговли

Город Ташкент	<p>Кудратов Л. – первый заместитель министра инвестиций и внешней торговли <i>(по Бектемирскому, Мирзо-Улугбекскому, Чиланзарскому, Шайхантахурскому, Юнусабадскому и Яшнабадскому районам)</i></p>
	<p>Кудбиев Ш. – председатель Государственного налогового комитета <i>(по Мирабадскому, Алмазарскому, Сергелийскому, Учтепинскому, Яккасарайскому и Янгихаятскому районам)</i></p>

Примечания.

При переходе членов Региональных рабочих групп на другую работу в их состав включаются лица, вновь назначенные на эти должности, либо лица, на которых возложено выполнение соответствующих функций.

Региональные рабочие группы в целях выполнения возложенных на них задач, при необходимости, могут привлекать руководителей и представителей других соответствующих министерств, ведомств и организаций.





**XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING
MAHALLIY BUDJET, IQTISODIY ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH,
TURIZM, INVESTITSİYALAR VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH
MASALALARI BO‘YICHA DOIMIY KOMISSIYASINING QARORI**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-12-30, (+99876) 224-03-94

2022 yil 4 noyabr

№12-03/02-son

Termiz sh.

**Surxondaryo viloyatida 2022-2023-yillarda mahallalar
infratuzilmasini yanada yaxshilash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-408-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek hududlarni obod qilish, qishloq va mahallalarda infratuzilma bilan bog‘liq eng dolzarb masalalarni tizimli hal etish, xususan, joylarda ichki yo‘llar, ichimlik suvi va oqova suv, elektr energiyasi va gaz ta‘minotini, ta‘lim boshqa infratuzilma obyektlarini yaxshilash, shu asosda aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish maqsadida, viloyat hokimligi tomonidan Dastur doirasida amalga oshiriladigan loyihalarning ro‘yxatlarini muhokama qilib, xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kammunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi **qaror qiladi**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-408-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Surxondaryo viloyatida 2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha loyihalar dasturi doirasida amalga oshiriladigan tadbirlarning yig‘ma parametrlari 1-ilovaga hamda dastur doirasida 2022-yil amalga oshiriladigan obyektlarning manzilli ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq ma‘qullansin.

3 Dastur doirasida amalga oshiriladigan qurilish-ta‘mirlash ishlari bo‘yicha buyurtmachilar etib:

ichki avtomobil yo‘llari bo‘yicha - Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tizimidagi buyurtmachi tashkilotlar;

ichimlik suv ta‘minoti va oqova suv tizimi obyektlari bo‘yicha - “Suv ta‘minoti va oqova suv obyektlari qurilishi bo‘yicha injiniring kompaniyasi” unitar korxonasi;

elektr energiyasi va gaz ta'minoti obyektlari hamda aloqa tarmoqlari bo'yicha - tegishincha "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Hududgazta'minot" AJ va "O'zbektelekom" AK;

ijtimoiy soha obyektlari, mahalla fuqarolar yig'inlari idoralari, obodonlashtirish va tungi yoritish uskunalarini o'rnatish ishlari va boshqa obyektlar bo'yicha - viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi hamda ushbu obyektlarni saqlash bilan bog'liq ta'mirlash ishlari bo'yicha - tegishli tarmoq korxonalarini belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida 2022-2023-yillarda viloyatda barcha tarmoqlar (sohalar) bo'yicha 438 ta mahallalarda jami qiymati 423,2 mlrd. so'mlik 532 ta loyihalarda yangi qurish, rekonstruksiya, mukammal ta'mirlash va jihozlash ishlari amalga oshirilishi qayd etilsin.

Bunda, ichki yo'llar bo'yicha qiymati 234,7 mlrd. so'mlik 27 ta loyiha, ichimlik suvi ta'minoti bo'yicha qiymati 133,6 mlrd. so'mlik 194 ta loyiha, oqovasuv ta'minoti bo'yicha qiymati 3,2 mlrd. so'mlik 2 ta loyiha, elektr energiyasi ta'minoti bo'yicha qiymati 14,8 mlrd. so'mlik 58 ta loyiha, gaz ta'minoti bo'yicha qiymati 3,0 mlrd. so'mlik 8 ta loyiha, umumta'lim maktablari bo'yicha qiymati 7,7 mlrd. so'mlik 8 ta loyiha, maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'yicha qiymati 1,7 mlrd. so'mlik 6 ta loyiha, sport obyektlari bo'yicha qiymati 1,0 mlrd. so'mlik 2 ta loyiha, boshqa obyektlar bo'yicha qiymati 24,0 mlrd. so'mlik 47 ta loyihalar amalga oshiriladi.

5. Viloyatdagi barcha loyihalar bo'yicha pudrat tashkilotlarini aniqlash "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi orqali amalga oshirilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda:

bosh loyihachi tashkilotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tanlov (tender) orqali;

bosh pudrat tashkilotlari belgilangan tartibda "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi orqali hamda obyektlarni saqlash bilan bog'liq ta'mirlash ishlari uchun jalb etiladigan tashkilotlar belgilangan tartibda tanlov (tender) orqali aniqlanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi "2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-408-sonli qaroriga asosan bosh pudratchi va bosh loyihachi tashkilotlarga istisno tariqasida qurilish-ta'mirlash ishlari uchun 30 foiz oldindan to'lov (avans) amalga oshirishga ruxsat berilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

6. Termiz shahar va tumanlar sektorlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari dastur doirasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida har oyda xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlariga hisobot berib borsin.

7. Xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish,

kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi dasturning ijro etilishi holatini muntazam muhokama qilsin va mas'ul rahbarlarning hisobotlari eshitilib borilishini ta'minlasin.

8. Viloyat hokimining o'rinbosari A.Xidirov viloyat Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i F.Tairov bilan birgalikda bajarilgan qurilish-ta'mirlash ishlarining hajmi va sifati bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish maqsadida dasturga kiritilgan obyektlarni foydalanishga topshirish bo'yicha **davlat qabul komissiyalari tarkibiga mahalla fuqarolar yig'inlari raislari** kiritilishini ta'minlasin.

9. Surxondaryo viloyati qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi (B.Nazarov), Transport vazirligi huzuridagi yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasi Surxondaryo viloyat hududiy bo'linmasi (A.Xaitov), Surxondaryo viloyati ichimlik suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi (S.Toshpulatov) qurilish-ta'mirlash ishlarining sifati, shaharsozlik normalari va qoidalariga rioya etilishi yuzasidan davlat arxitektura-qurilish nazoratini amalga oshirishni ta'minlasin.

